

МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРҮҮ



ISSN 2181-7138

№ 1 / I 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҰОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестиріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириу
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гууалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жууан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууанкер.

MAZМУНЫ

БАСЛАЎҶИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanishning ahamiyati	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati ..	22
Xolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari	58
Narimbetova Z.A., Asgarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi	67
Умарова З.А. Бошланғич таълимда педагогик жараён	70
Жабборова О.М., Сайидганиева З.С. Бошланғич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish	78
Мамадалиев К.Р. Бошланғич таълим йўналиши ўқув фанлари тузилмаси ва зamonaviy ўқув адабиётларини яратиш принциплари	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов	86

ТИЛ ҲАМ ҲДЕБИЯТ

Матчинов С., Холикулова Ф. Ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини шакллантиришда матннинг лингводидактик таҳлили	91
Шерматова У.С., Жабборова О. М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни	95

чать новые знания, обрабатывать их и эффективно применять в своей практике. Эта статья будет направлена на привлечение будущие учителя начальных классов к профессии, формирование возможности выбора правильной профессии и осознанный выбор профессии, формирование профессиональной компетентности в соответствии с потребностями общества, исходя из социальных отношений.

SUMMARY

The qualities of professional pedagogical competence are of practical importance for teachers, so that they can consistently enrich their knowledge, learn new educational information, educational materials. To meet the requirements of today, to learn new knowledge, to process it and to apply it effectively in their practice. This article will aim to involve future primary school teachers in the profession, forming the choice of the right profession and conscious choice of profession, forming professional competence in accordance with the needs of society, based on social relations.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Narimbetova Z.A.

Toshkent viloyati ChDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Asqarova N.J.

Toshkent viloyati ChDPI maxsus sirtqi 18/1-guruh talabasi

Tayanch so'zlar: interfaol usul, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, klaster, o'yinlar nazariyasi, faollik.

Ключевые слова: интерактивный метод, педагогическая технология, дидактические игры, кластер, теория игр, деятельность.

Key words: interactive method, pedagogical technology, didactic games, cluster, game theory, activity.

Ushbu maqola boshlang'ich sinif o'qituvchilariga matematika darslarini pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar asosida tashkil etishga yordam berish maqsadida yozildi. Unda matematika darslarida o'quvchilar bilan ishlash usullari bayon etilgan. Maqolada og'zaki hisoblashlarni o'rgatish, didaktik o'yinlar va mashqlrni qo'llash, topshiriqli kartochkalar va o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi topshiriqlar bilan ishlash, nazorat ishlarini o'tkazish, og'zaki hisoblash jadvallari kabilar o'rin olgan [1].

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning uquv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi.

Har bir didaktik o'yinning ham har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa, o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyati, binobarin, o'yinning ta'lim-tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga

kiritiladi. Albatta, qisqa hajmga ega bo'lgan mazkur qo'llanma barcha savollarni to'liq va batafsil yoritib bera olmaydi, ammo unda berilgan metodik tavsiyalar va topshiriqlardan namunalari o'qituvchining matematika darslarini turli xil usullardan foydalanilgan holda tashkil etishiga yordam beradi. Bu didaktik materiallar va o'yinlardan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy foydalanishi mumkin.

Maktab islohotining amalga oshirilishi maktabda ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishni, sifat va samaradorligini oshirishni, hayot bilan aloqasini mustahkamlashni taqozo etmoqda. O'yin jarayonida bola faqat tashqi muhit hodisalari bilan tanishib uni his etib qolmasdan balki voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildiradi. O'yin bola faoliyatida ijodkorlikni yanada boyitib aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda muhim hisoblanadi. O'yinning turlari juda ko'p bo'lib, aksariyat bolalar faoliyatida didaktik o'yin faoliyati ko'proq uchraydi. Didaktik o'yinlar xilma-xil materiallar asosida tashkil qilinib, ular bolalarning aqliy va jismoniy kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Didaktik o'yinlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishni yanada yengillashtirishi shakl shubhasizdir.

Barchamizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish juda murakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'limfaoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'raligicha esda saqlab qolish imkonini beradi [3].

Ta'limiy o'yinlarning yana bir jihati shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini ta'minlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning o'zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta'minlaydi. Shularni inobatga olgan zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi.

O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushunchalardan iborat bo'lib dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning o'zida bu bilimlarni hayotda qo'llab ko'radi.

Misol tariqasida "33 ta 33" didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi.

O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5, qarsak va h.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi [2].



Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi. Matematika darsida "Sayohat dars" didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin.

Didaktik topshiriq: berilgan misollarni to'g'ri va aniq yechish xatolar ustida ishlay olish.

O'yin topshiriqi: O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga

e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tanlash. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tanlash uning maqsadi va mohiyati tarbiyaviy va ta'limiy xususiyatiga e'tibor berish asosiy hisoblanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. "Kim aniqroq va tezroq", "Bush kelma", "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganni eslab qolish diktanti" singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar. Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. "Kim turgan saf yaxshiroq", "Zanjircha", "Norvoncha", "Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin" singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar. Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlagan ishni oxirigacha etkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, "Estafeta", "Doiraviy misollar" o'yinida berilgan misollarning hammasini echish kerak, aks holda, oxirgi sonning birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni faollashtirib yuboradi va ular misolni echmay qo'ymaydilar. "Do'koncha" tipidagi o'yinda o'yinchoqlar "sotib olish"ning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab (q'o'shib) chiqishga, necha pul "qaytarib" berish kerakligi haqida o'yab ko'rishga ham to'g'ri keladi. Quyida keltirilib o'tayotgan didaktik o'yinlarimiz bolalar bilan ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kerakli vosita bo'la oladi va didaktik o'yinlar asosida dars o'tish bugungi kunda ancha yaxshi natija bermoqda [3].



Didaktik o'yinlardan namunalar. "Sonning tarkibini toping" o'yini: O'yin mazmuni magnit doskasida 2,3,4,5,6,7,8,9 va turli sonlar ko'rsatiladi va u qanday sonlardan tuzilganligi so'raladi. O'quvchilar magnit doskasida ko'rsatadilar. Bu o'yin

orqali o'quvchilar sonning tarkibini aniqlashadi. Albatta, birinchi bo'lib yechgan o'quvchilar g'olib hisoblanadi.

"Javobi 4 chiqish kerak". To'rt bola to'rt xil amal bo'yicha misol yechyapti. Ular bir shartga rioya etishlari ya'ni, shunday sonlarni topishlari kerakki, ularni

2 ga bo'lganda, ko'paytirganda, qo'shganda 2 ni ayirganda javobi bir xil, albatta 4 chiqsin.

$$X:3=$$

$$X+2=$$

$$X*2=$$

$$X-2=$$

Bundan tashqari turli matematik topshiriqlar, qiziqarli masalalardan ham foydalansa bo'ladi.


«Estafeta» o'yini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning matematika darslarida faolligini oshirish.

O'yin topshirig'i: O'quvchilarning topqirlikka, chaqqonlikka, ziyraklikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash.

O'yin bayoni: Bu o'yin uchun quyidagi jihozlarni tayyorlash lozim: magnit doska, qalin qog'ozdan yasalgan qayiqchalar, ularning cho'ntakchasiga solib qo'yish uchun misollar yozilgan varaqlar. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Kim quyidagi misolni birinchi yechsa, o'sha o'quvchi oldinda suzib ketayotgan bo'ladi, g'oliblar shu tariqa ketma-

ket aniqlanadi, solning javobini tez topsa, o'sha ketgan o'quvchilarni rag'batlantirib borilsa, o'quvchilarda qiziqish shuncha ortadi. Mehnat darsida turli xildagi ko'rsatmali ko'rgazmalar (kema) yasatish ayni muddao bo'ladi. O'qituvchining o'yin musobaqa darslarini yil fasllariga moslab tashkil qilishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Dars jarayonida bir xil o'yindan ko'p marta foydalanish o'quvchilarni zeriktiradi, shuning uchun ko'p va har xil o'yinlardan unumli foydalanilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari va faolliklari shunchalik ortadi. «Estafeta» o'yinini «Doiraviy misollar» o'yini tarzida ham o'tkazib borish katta ahamiyat kasb etadi.



«Ikkinchi qo'shish va ayirish» didaktik o'yini: «Jimjitlik»

Didaktik topshiriq: o'ngacha og'zaki sanash.

O'yin topshirig'i: o'qituvchi ko'rsatgan narsalarning «hayolda» sanash, doskaning oldiga borib, son natijasini topib, uni o'chirib tashlash.

Bu o'yin turli usullarda o'tkaziladi. O'qituvchi doskaga oldinroq doira chizib, uning atrofiga 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni yozib, doiraning o'rtasiga 2 raqamini amal belgisi (qo'shish yoki ayirish) bilan yozib qo'ygan bo'ladi. O'yin uyuq berilgan topshiriq tekshi- rilgandan keyin o'tkaziladi. O'qituvchi bolalarga o'yin qoidalarini tushuntiradi:


— O'yin mutlaqo jimjitlik vaziyatida o'tkaziladi, — deydi o'qituvchi*. - Ravval men doira ichidagi raqamni, keyin qo'shish yoki ayirish ishorasini va doira atrofidagi raqamlardan birini ko'rsataman.

«Qurilishga sayohat» o'yini.

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning matematika darslarida hayot bilan bog'lab o'qitilishdagi faolligini oshirish.

O'yin topshirig'i: Oquvchilarni matematika darslarida turmush bilan bog'lab o'qitish va kasb-hunarga qiziqishini orttirish.

O'yin bayoni: Bu o'yin 2 sinfdan 1000 ichida to'rt amalni o'rganilgandan so'ng mustahkamlash bosqichida o'tkazilishi mumkin.



O'yin jihozi uchun magnitli dars doskasi, qalin qog'ozdan yasalgan uyning poydevoridan to to'liq tayyor bo'lganiga qadar bo'lgan jarayonni aks ettiruvchi tasvir va 5 ta bosqichga 5 ta kartochkaga yozilgan topshiriq tayyorlab qo'yiladi. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Uy yonidan o'tuvchi yo'lga yengil mashina o'yinchog'i yoki rasmi qo'yiladi.

Uyning poydevori qurilishdan tomi yopilguncha bo'lgan 5 ta bosqichning har birida bittadan jami 5 ta kartochka yozilgan topshiriqlar beriladi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi (3 qator parta 3 guruh deb o'rgatiladi). Har bir guruhdan o'quvchi chiqib 1-rasm orqasiga yopishtirib qo'yilgan topshiriqni o'qiydi (Har bir guruh uchun bittadan misol yozilgan bo'ladi).

Masalaning o'zi bilan va uning tarkibiy elementlari bilan bolalarni tanishtirish o'qitish jarayonidagi navbatdagi eng muhim va juda ma'suliyatli bosqichidir. Keyingi darslarda masalani dastlabki analiz qilishda o'quvchilar bilan savol-javob asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir [4].

Didaktik o'yinlardan ko'zda tutilgan natijalar. Ta'limda didaktik o'yinlar asosida o'quv jarayonini tashkil qilish metodikasi an'anaviy o'quv uslubidan tubdan farqlanib, u bo'lajak o'qituvchilar va o'quvchi, talabalar uchun:

- o‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish;
- differensial va individual o‘qitish jarayonini tashkil qilish;
- o‘qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog‘lash;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish va tuzatib borish;
- o‘rganilayotgan fanlarni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini ko‘rsatish;
- o‘quvchi-talabalarda fanni o‘zlashtirish uchun srategik ko‘nikmalar hosil qilish;
- o‘quvchilarning mutsaqil ishlashlari uchun yangi sharoit yaratish;
- masofadan o‘qitish tizimini o‘quv adabiyotlari sifatida qo‘llash;
- ta‘lim tizimida o‘quv-laboratoriya ishlarini bajarishda tejamkorlikka erishish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Bu boradaga izlanishlar ta‘lim tizimidagi zamonaviy didaktik o‘yinlarni joriy qilish bilan bog‘liq ekanligini, ulardan maqsadli foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga olib kelishini ko‘rsatmoqda.

O‘yin – bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o‘yin turlariga qarab, ob‘yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi. O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma‘lum darajada davomi va mustahkamlanishidir.

Tajribada shu narsa isbotlanganki, o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

O‘yin - musobaqa darsi o‘quvchilarni yanada faollashtirishga yordam beradi. Albatta, o‘yin musobaqa darslarini yil fasllariga moslab tashkil etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qanchalik ko‘p va har xil o‘yinlardan foydalanilsa, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari va faolliklari shunchalik ortib boradi. O‘yin o‘quvchilarning bilimini oshirish va fikrini charxlashning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchilar yuqoridagi o‘yinlardan o‘rinli foydalanib borsa, o‘ylaymizki, farzandlarimiz davrimizning eng yetuk, komil insonlari bo‘lib yetishib chiqadilar.

Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlar mavzusining dolzarbligi o‘quvchilarga mavzular tushunchasi orqali o‘rganish bolalarga shu mavzuni o‘tish orqali qisman bo‘lsada, mavzu mazmunini qiziqarli va tushinarli tarzda yetkazib berishni nazarda tutgan edim.

Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi rivojlanish davrida o‘sib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama yetuk inson, vatanimizning kelajagi qilib tarbiyalash asosan boshlang‘ich sinflarda asosiy poydevor quriladi desam adashmagan bo‘laman. Matematika darsiga bolalarning qiziqishini o‘stirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasidadir.

Adabiyotlar:

1. J.G‘. Yoldoshev, S.A. Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari”. Toshkent-2004.
2. “Uzluksiz ta‘lim” jurnali 2016. 24 bet.
3. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlar qo‘lyozmadan. 2004. 7-56 bet.
4. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2005. 284-bet.
4. Наримбетова З.А. Математика fanida ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omili. Academic research in educational sciences, Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Issue 3, pp 1253-1261.
5. Наримбетова З.А. Математикани ўқитишда илғор педагогик технологиялар ва ўқитишнинг замонавий усулларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари. СамДУ Та‘лим sifatini oshirish va zamonaviy interfa‘ol metodlardan foydalanishning innovatsion texnologiyalari va uslublari. 3-Q. 143-146 B.

РЕЗЮМЕ

Maqolada fan va texnika rivojlangan hozirgi paytda ta‘lim sohasida boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati haqida aniq misollar yordamida ko‘rsatib berilgan.

В статье приводятся конкретные примеры важности дидактических игр на уроках математики в начальной школе в современный век науки и технологий.

The article provides specific examples of the importance of didactic games in mathematics lessons in elementary school in the modern age of science and technology.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA MAQOLLAR ESTETIKASI

G‘ulomova X.

Toshkent viloyati ChDPI “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Таянч сўзлар: maqol, hikmatli gap, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash ko‘nikmalari, badiiy til vositalari, tarbiya vositasi, estetik zavq.

Ключевые слова: пословицы, поговорки, сравнения, обобщения, навыки обобщения, средства художественного языка, образовательные средства, эстетическое удовольствие.

Key words: proverbs, sayings, comparisons, generalizations, summarizing skills, artistic language tools, educational tools, aesthetic pleasure.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Biz yashayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan” [1], degan fikrlari xalqning asrlar davomida orttirgan hayotiy tajribasi asosida yaratilgan maqollarga ham tegishlidir. Maqollar xalqning turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va donoligi ifodalangan qisqa, ko‘pincha she‘riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma‘noli iboralardan tashkil topgan og‘zaki ijod namunasi bo‘lib, g‘oyat muhim badiiy-estetik tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgandir. “Maqol – arabcha, maqola, kichik asar; so‘z, nutq. Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihath mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma‘noli va hikmatli ibora, gap” [2, 569]. Maqollarning mavzu doirasi nihoyatda keng, unda hayotning turli masalalari o‘z aksini topgan. Ko‘pincha o‘g‘it, pand-nasihath xarakterida bo‘ladi. Masalan, “Er haydasang - kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda”, “Hunari yo‘q kishining, mazasi yo‘q ishining” va hokazo.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy shakllaridan biri sifatida xilma-xil badiiy ifoda vositalari - ohangdor tovushlar takroridan tashkil topishiga ko‘ra eshituvchining diqqatini tortadi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan so‘z ustalarining chuqur ma‘noli hikmatli so‘zlari ham ko‘pincha xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning “Mahbub ul-qulub”da aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e‘tiborsiz” va boshq.

Maqollar badiiy asar personajlari nutqida, ba‘zan asar sarlavhalarida, badiiy asar voqealari yakunida qo‘llanadi. Bir maqol butun asar g‘oyasini ochib berishi mumkin.

Ma‘lumki, bola maktabga kelgunga qadar ota-onasi nutqida maqollarni eshitadi va unda nima deyilganini ma‘lum darajada anglaydi. Hatti-harakatini maqolda aytilgan tanbeh yoki rag‘bat asosida boshqaradi.

Shunga ko‘ra, ta‘lim jarayonida ham tez-tez maqollarga murojaat qilish ehtiyoji tug‘iladi. O‘quvchilar boshlang‘ich sinflardan boshlab turli uslubdagi matn va sujetli rasmlar mazmuni bilan bog‘liq maqollarni o‘qiydilar, ularning ma‘nosini izohlaydilar.